

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MAISHIY LEKSIKANING SHAKL VA  
MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI**  
*(sinonimiya, polisemiya, omonimiya, antonimiya)*

Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna DSc, prof. v.b.

E-mail: [norbayeva1975@mail.ru](mailto:norbayeva1975@mail.ru)

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

Xasanova Mavluda Alisher qizi, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: [khasanovamavluda0@gmail.com](mailto:khasanovamavluda0@gmail.com)

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi maishiy leksika doirasida kuzatiladigan shakl va ma’no munosabatlari - sinonimiya, polisemiya, omonimiya hamda antonimiya - chog‘ishtirma aspektda tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** maishiy leksika, sinonimiya, polisemiya, omonimiya, antonimiya, leksik-semantik munosabat, o‘zlashma qatlam, chog‘ishtirma tahlil, semema

Leksik tizimning tartibliligi so‘zlar o‘rtasidagi paradigmatic munosabatlar - sinonimiya, polisemiya, omonimiya va antonimiya - orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Maishiy leksika, ya’ni uy-joy, uy-ro‘zg‘or, oziq-ovqat va kiyim-kechak sohalariga oid so‘zlar guruhi, ushbu munosabatlarni o‘rganish uchun qulay material hisoblanadi, chunki u eng faol qo‘llaniladigan, barcha so‘zlovchilarga tanish bo‘lgan birliklardan tashkil topadi. Bu jihat amaliy nuqtai nazardan ham ahamiyatlidir: X.X. Eshchanova ta’kidlaganidek, til o‘rgatishning ilk bosqichlarida, jumladan, yosh o‘rganuvchilar bilan ertak matnlari asosida olib boriladigan mashg‘ulotlarda ham aynan o‘rganuvchiga tanish bo‘lgan kundalik maishiy leksika tayanch til materiali vazifasini

bajaradi<sup>1</sup>. A.A. Ufimtseva ta'kidlaganidek, so'zning leksik-semantik tizimdagi o'rni uning boshqa birliklar bilan paradigmatic, sintagmatic va epidigmatic munosabatlari yig'indisi orqali belgilanadi<sup>2</sup>. Shu bois maishiy birliklarni alohida emas, balki o'zaro munosabatlar tizimida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek va ingliz tillaridagi maishiy leksika doirasida shakl va ma'no munosabatiga ko'ra ajraladigan to'rt asosiy turni qiyosiy yoritish, ularning har bir tildagi namoyon bo'lish o'ziga xosligini hamda bu o'ziga xoslikni keltirib chiqaruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlashdan iborat. Tipologik jihatdan o'zbek tili (agglutinativ turkiy til) va ingliz tili (analitik german tili) bir-biridan tubdan farq qilgani sababli, mazkur munosabatlarning ikki tildagi nisbati til qurilishidagi tafovutlarni ham aks ettiradi.

Sinonimiya - ma'nosi to'liq yoki qisman mos keladigan so'zlar o'rtasidagi munosabat. Yu.D. Apresyan sinonimlarni quyidagicha ta'riflaydi<sup>3</sup>: "Leksik sinonimlar deb ma'nolari to'liq yoki qisman ustma-ust tushadigan, ko'p hollarda bir-birining o'rnida qo'llanishi mumkin bo'lgan so'zlarga aytiladi". Maishiy leksikada sinonimiya, asosan, ikki manbadan oziqlanadi: birinchidan, o'z qatlam va o'zlashma qatlam birliklarining yonma-yon mavjudligi; ikkinchidan, hududiy hamda uslubiy variantlarning rivojlanishi.

E. Begmatov o'zbek tili lug'at tarkibini qatlamlarga ajratar ekan, o'zlashmalarning o'z qatlam birliklari bilan sinonimik munosabatga kirishini alohida ko'rsatib o'tadi<sup>4</sup>.

O'zbek tilida maishiy sinonimiya ko'pincha o'z so'z bilan forsha-arabcha yoki rus tilidan o'zlashgan so'z o'rtasida yuzaga keladi: yostiqlar - bolish (yostiqlar), deraza - darcha (oyina-tuynuk), uy - xonadon (turar joy va oila). So'zlashuv uslubida adabiy

<sup>1</sup> Eshchanova X.X. Principals of using fairy tales in the language classroom with young learners in the kindergarten // Экономика и социум. – 2021. – №7 (86). – С. 45-48.

<sup>2</sup> Уфимцева А.А. Слово в лексико-семантической системе языка. – М.: Наука, 1968. – С. 31.

<sup>3</sup> Апресян Ю.Д. Лексическая семантика: Синонимические средства языка. – М.: Наука, 1974. – С. 216.

<sup>4</sup> Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 64.

birlik bilan rus tilidan o‘zlashgan dublet parallel qo‘llaniladi: muzlatgich - xolodilnik, changyutgich - pilesos. Bunday juftliklar maydonning dinamik holatini, undagi raqobat va almashinish jarayonini ko‘rsatadi. Maishiy sinonimiyada sinonimlarning ma‘noviy-uslubiy turlari ham aniq farqlanadi. Mutlaq (to‘liq) sinonimlar maishiy sohada nisbatan kam uchraydi va, odatda, vaqtinchalik xususiyatga ega bo‘ladi: ikki birlikdan biri pirovardida uslubiy yoki chastotaviy jihatdan ustunlik qiladi. Ko‘pchilik sinonimik juftliklar esa ideografik (ma‘no qirralari bilan farqlanuvchi) yoki uslubiy (qo‘llanish sohasi bilan farqlanuvchi) sinonimlardir. Masalan, o‘zbek tilidagi darcha birligi derazaga nisbatan kichik o‘lchovli oynani bildirib, ideografik farqni saqlaydi; xolodilnik esa muzlatgichga nisbatan so‘zlashuv uslubiga xosligi bilan ajralib turadi. Bu hodisa har bir tilning ichki ma‘noviy taqsimotini ochib beradi va chog‘ishtirma tahlilning muhim yo‘nalishini tashkil etadi. Uslubiy sinonimiyaning yana bir muhim manbai evfemizmlardir: M. Eshchanova evfemizmlarning semantik, pragmatik va funksional tasniflarini umumlashtirar ekan, ularning noqulay yoki dag‘al deb qabul qilinadigan tushunchani yumshoq ifodalovchi muqobil sifatida sinonimik qatorlarni boyitib borishini ko‘rsatadi<sup>5</sup>. Ingliz tilida esa maishiy sinonimiyaning o‘ziga xos manbai — Britaniya va Amerika variantlari o‘rtasidagi hududiy farq: flat (BrE) - apartment (AmE), tap (BrE) - faucet (AmE), curtains - drapes, sofa - couch - settee, frying pan - skillet. Demak, ikki tilda ham sinonimiya faol, biroq uning asosiy manbai farqlanadi: o‘zbek tilida - turli tillardan o‘zlashish, ingliz tilida - variantlararo (hududiy) tafovut. Bu farq har bir tilning tarixiy taraqqiyoti va madaniy aloqalari bilan izohlanadi.

Polisemiya - bir so‘zning bir-biri bilan bog‘liq bir necha ma‘noga ega bo‘lishidir. M. Mirtojiyev o‘zbek tili semasiologiyasiga oid ishida ko‘p ma‘nolilikning tabiatini quyidagicha izohlaydi<sup>6</sup>: “So‘zning ko‘p ma‘noliligi uning bir ma‘nodan ikkinchi ma‘noga ko‘chishi natijasida yuzaga keladi va bu hodisa til taraqqiyotining

<sup>5</sup> Eshchanova M. Classical classifications of euphemisms: semantic, pragmatic and functional approaches // O‘zbekiston–2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2025. – №1.4. – B. 113-115.

<sup>6</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 142.

tabiiy mahsulidir”. Maishiy birliklar yuqori qo‘llanish chastotasiga ega bo‘lgani uchun ularda metafora va metonimiya asosidagi ma’no ko‘chishi juda faol kechadi.

O‘zbek tilida polisemiya, ayniqsa, oziq-ovqat va uy-joy nomlarida yorqin ko‘rinadi: non - 1) asosiy nonniy mahsulot; 2) tirikchilik, rizq (nonini topmoq). Dasturxon - 1) ovqatlanish uchun yoziladigan mato; 2) taom va mehmondo‘stlik (dasturxoni keng). Osh - 1) palov; 2) ovqat umuman; 3) to‘y-marosim (oshga aytmoq). Uy - 1) bino; 2) xona; 3) oila (uyli-joyli bo‘lmoq). Ingliz tilida ham maishiy so‘zlar ko‘p ma’noli: dish - 1) idish; 2) tayyor taom, ovqat turi; 3) sputnik antennasi; glass - 1) shisha (material); 2) stakan; 3) ko‘zoynak (glasses); iron - 1) temir; 2) dazmol; 3) dazmollamoq.

D.N.Shmelyov ta’kidlaganidek, polisemiya leksik tejamkorlikning asosiy vositasi bo‘lib, bir shaklga bir necha bog‘liq ma’no yuklash imkonini beradi<sup>7</sup>.

Maishiy leksikada ko‘p ma’nolilikning alohida turi - regulyar (muntazam) polisemiya ham keng tarqalgan. Bunda bir xil ma’no ko‘chish modeli butun bir guruh so‘zlarda takrorlanadi. Buning eng yorqin ko‘rinishi «idish - undagi miqdor» modelidir: o‘zbek tilida bir piyola (choy), bir kosa (osh), bir qoshiq (dori) birikmalarida idish nomi o‘sha idishga sig‘adigan miqdorni bildiradi. Aynan shu model ingliz tilida ham faol: a cup (of tea), a spoonful, a plate (of rice). Regulyar polisemiyaning har ikki tilda bir xil ko‘rinishda uchrashi ma’no ko‘chishidagi kognitiv universalini - predmet va uning mazmuni o‘rtasidagi metonimik bog‘lanishni - tasdiqlaydi. Biroq bu modelning mahsuldorlik darajasi va qamrovi har bir tilda o‘ziga xosdir.

Chog‘ishtirma kuzatuv shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda maishiy so‘zlarning ma’no ko‘chishi ko‘pincha bir xil yo‘nalishda - konkret predmetdan funktsiya yoki natijaga (idish - taom, dish - taom) qarab boradi. Bu - ko‘p ma’nolilikdagi qisman universal tendensiya. Biroq ko‘chma ma’nolarning konkret tarmoqlanishi va miqdori

<sup>7</sup> Шмелёв Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. – М.: Наука, 1973. – С. 73.

har bir tilda o'ziga xos bo'lib qoladi. Ko'chma ma'nolarning ana shu milliy o'ziga xosligi tarjima amaliyotida alohida qiyinchilik tug'diradi: I.E. Radjapova ta'kidlaganidek, metafora va metonimiyaga asoslangan badiiy tasvir vositalarini boshqa tilda qayta yaratishda ularning asl ma'no qirralari hamda milliy-madaniy bo'yog'ini saqlab qolish tarjimonning eng murakkab vazifalaridan biri sanaladi<sup>8</sup>.

Omonimiya - shakli (talaffuzi va/yoki yozilishi) bir xil, ammo ma'nolari o'zaro bog'lanmagan so'zlar munosabatidir. Polisemiya dan farqli o'laroq, omonimlar ma'nolari orasida tarixiy yoki assotsiativ bog'liqlik mavjud emas. O'zbek tilida maishiy oziq-ovqat nomlari bilan fe'l o'zaklari o'rtasida bir qator omonimlar kuzatiladi: et (go'sht) - et- (etmoq, harakat o'zagi); yog' (moy, oziq-ovqat) - yog'- (yog'moq, yomg'ir haqida); osh (palov) - osh- (oshmoq, ko'paymoq); tuz (osh tuzi) - tuz- (tuzmoq, tartibga solmoq). Bunday omonimiya, asosan, o'zbek tilining agglutinativ tabiati va o'zak morfemalarning qisqaligi natijasida yuzaga keladi.

Ingliz tilida ham maishiy buyum nomlari boshqa so'zlar bilan omonimik juftliklar hosil qiladi: pan (tova) — to pan (qattiq tanqid qilmoq); tap (jo'mrak) - to tap (yengil urmoq); fan (yelpig'ich, ventilyator) - fan (muxlis). J. Lyons omonimiya va polisemiya ni farqlashda ma'nolar o'rtasidagi bog'liqlik mezoniga tayanishni asoslab beradi: bog'liqlik mavjud bo'lsa -polisemiya, bo'lmasa - omonimiya<sup>9</sup>. D.A. Kruz esa bu chegaraning ko'p hollarda nisbiy ekanligini, so'zlovchilarning til sezgisiga bog'liqligini ta'kidlaydi<sup>10</sup>. Chog'ishtirma tahlilda omonimiya o'zbek tilida ko'proq o'zak-fe'l darajasida, ingliz tilida esa otdan fe'lga konversiya (so'z turkumining o'zgarishi) natijasida shakllanishi kuzatiladi - bu yana til qurilishidagi tipologik farq bilan izohlanadi.

Maishiy leksikada antonimiya

<sup>8</sup> Radjapova I.E. Tarjimada badiiy tasvir vositalarini qayta yaratish muammolari // O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – 2025. – B. 736-738.

<sup>9</sup> Lyons J. Semantics. Vol. 1. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 270.

<sup>10</sup> Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 88.

Omonimiya bilan polisemiya o'rtasidagi chegara, ayniqsa, maishiy leksikada doimo aniq emas, chunki tarixiy ma'no ko'chishi natijasida bir vaqtlar bog'liq bo'lgan ma'nolar bir-biridan uzoqlashib, mustaqil omonimlarga aylanishi mumkin. Tilshunoslikda bu jarayon polisemiyaning parchalanishi (semantik divergensiya) deb yuritiladi. Maishiy sohada bunday holatlar so'zning denotativ asosi unutilgani sayin kuchayadi; shu bois ayrim birliklarning omonim yoki ko'p ma'noli so'z sifatida talqin qilinishi lug'atdan lug'atga farq qilishi mumkin. Bu esa har bir tilda omonimik qatorni belgilashda diaxronik mezonni hisobga olishni taqozo etadi.

Antonimiya - ma'no jihatdan qarama-qarshi so'zlar munosabati. L.A. Novikov antonimiyaning asosiy sharti sifatida so'zlar ma'nosida umumiy semaning mavjudligi va shu sema doirasida qutbiy qarama-qarshilikni ko'rsatadi<sup>11</sup>. Aynan shu shart tufayli antonimiya maishiy leksikada eng kam tarqalgan munosabat hisoblanadi: konkret predmet otlari (qozon, kosa, ko'ylak, deraza) o'z tabiatiga ko'ra ma'noviy qarama-qarshilikka ega emas, chunki ular sifat yoki belgini emas, balki narsani nomlaydi.

Shu sababli maishiy soha antonimiyasi, odatda, predmetni tavsiflovchi differensial belgilar orqali, ya'ni sifat-ot birikmalari darajasida yuzaga chiqadi: o'zbekcha issiq taom - sovuq taom, ichki kiyim - ustki kiyim, yozgi kiyim - qishki kiyim; inglizcha indoor furniture - outdoor furniture, hot dish - cold dish. L.M. Vasilyev bunday hodisani komplementar (to'ldiruvchi) antonimiya doirasida izohlaydi: qarama-qarshilik predmetning o'zida emas, balki uning bir belgisining ikki qutbida namoyon bo'ladi<sup>12</sup>. Sh. Rahmatullayev ham o'zbek tilida antonimiya, avvalo, sifat va ravishlarga xos hodisa ekanligini, ot turkumida esa cheklangan ko'rinishda uchrashini ta'kidlaydi<sup>13</sup>. Demak, antonimiyaning kamligi har ikki tilda ham maishiy leksikaning predmetli-konkret tabiati bilan bog'liq universal qonuniyatdir.

<sup>11</sup>Новиков Л.А. Антонимия в русском языке. – М.: Изд-во МГУ, 1973. – С. 35.

<sup>12</sup> Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. – М.: Высшая школа, 1990. – С. 121.

<sup>13</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 96.

O'zbek va ingliz tillaridagi maishiy leksikaning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini chog'ishtirma tahlil qilish quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, maishiy leksikada eng faol munosabatlar -polisemiya va sinonimiya bo'lib, ular yuqori qo'llanish chastotasi va maydonning ochiqqligi bilan izohlanadi; antonimiya esa predmet otlarining konkret tabiati tufayli eng kam tarqalgan munosabat sifatida har ikki tilda universal tarzda namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, ayrim munosabatlarning yuzaga kelish manbalari ikki tilda farqlanadi: o'zbek tilida sinonimiya, asosan, o'zlashma va o'z qatlam birliklarining raqobati natijasida, omonimiya esa o'zak-fe'l darajasida shakllansa, ingliz tilida sinonimiyaning asosiy manbai hududiy (Britaniya–Amerika) variantlilik, omonimiyaniki esa konversiya hisoblanadi. Bu farqlar tillarning tipologik qurilishi hamda tarixiy-madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Uchinchidan, polisemiya ma'no ko'chishining yo'nalishi (predmetdan funksiyaga) ko'p jihatdan universal bo'lsa-da, ko'chma ma'nolarning miqdori va tarmoqlanishi milliy o'ziga xoslikni saqlaydi. Olingan natijalar qiyosiy leksikologiya, semasiologiya va leksikografiya sohalari uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Shuningdek, bunday chog'ishtirma material tarjima masalalarini o'qitish jarayonida ham bevosita qo'llanilishi mumkin: G. Sapparbaeva va Sh. Norboyevalar tarjimini o'rgatish talabalarda ikki til va ikki madaniyatni qiyoslash asosida madaniyatlararo kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini asoslab beradilar<sup>14</sup>.

Demak, ushbu masala o'zbek va ingliz tillarini chog'ishtirma tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish, shuningdek, ikki tilli lug'atlarni tuzish va tarjima nazariyasi muammolarini hal qilish uchun amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillarida kundalik turmush so'zlarining shakllanish mexanizmlari o'xshash bo'lsa-da, ularning semantik (ma'no) tabiati va qo'llanilishi

<sup>14</sup> Sapparbaeva G.M., Norboyeva Sh.H. Developing intercultural communication skills through teaching translation // European Scholar Journal. – 2021. – Vol. 2, №5. – P. 65-68.

har bir xalqning o'ziga xos milliy-madaniy dunyoqarashiga bo'ysunishini ilmiy asoslab beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика: Синонимические средства языка. – М.: Наука, 1974. – 367 с.
2. Шмелёв Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. – М.: Наука, 1973. – 280 с.
3. Уфимцева А.А. Слово в лексико-семантической системе языка. – М.: Наука, 1968. – 272 с.
4. Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. – М.: Высшая школа, 1990. – 176 с.
5. Новиков Л.А. Антонимия в русском языке. – М.: Изд-во МГУ, 1973. – 290 с.
6. Lyons J. Semantics. Vol. 1. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 371 p.
7. Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 310 p.
8. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
9. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 288 б.
10. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 б.

11. Eshchanova M. Classical classifications of euphemisms: semantic, pragmatic and functional approaches // O‘zbekiston–2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2025. – №1.4. – B. 113-115.

12. Eshchanova X.X. Principals of using fairy tales in the language classroom with young learners in the kindergarten // Экономика и социум. – 2021. – №7 (86). – С. 45-48.

13. Radjapova I.E. Tarjimada badiiy tasvir vositalarini qayta yaratish muammolari // O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – 2025. – B. 736-738.

14. Saparbaeva G.M., Norboyeva Sh.H. Developing intercultural communication skills through teaching translation // European Scholar Journal. – 2021. – Vol. 2, №5. – P. 65-68.